

## **Cellular pathology. Dystrophies.**

### **Lecture-11. Amyloidosis. Mesenchymal fat dystrophies (Lipidoses).**

**Lecturer. Avazbek Mamataliyev Ro'zuvaevich., Docent, Candidatus Medicinae**

#### *Nazorat savollari*

##### Assignment

1. *Jigar, ichaklar, o'pka va me'da osti bezi amiloidozini patogenezini tushuntiring?*
2. *Neytral yog'lar almashinuvini buzilishi nima?*
3. *Genetik (irsiy) amiloidozga ta'rif bering?*
4. *Semirish sabablarini ayting?*

*Ansvers:*

*Javoblar:*

#### **1. Jigar, ichaklar, o'pka va me'da osti bezi amiloidozini patogenezini tushuntiring?**

Jigarda amiloid sinusoidlarni yulduzsimon retikuloendoteliositlari orasida, bo'laklarni retikulyar sromasi bo'ylab, tomirlar va chiqaruv naylarini devorida, portal traktdagi biriktiruvchi to'qimada to'planadi. Gepatositlar atrofiyalanadi, halok bo'ladi. Jigar kattalashadi, zichlashadi, "yog'simon ko'rinish oladi.

Ichaklarda shilliq, shilliq osi qatlami retikulyar sromasi, tomirlari devorida amiloid to'planib, ular atrofiyalanadi.

O'pkalarda amiloid o'pka arteriyalari va venalari, peribronxial biriktiruvchi to'qimada, keyinchalik alveolalararo to'siqlarda to'planadi.

Me'da osi bezida - amiloid arteriyalar devorida, Langergans orolchalarida to'planadi.

#### **2. Neytral yog'lar almashinuvini buzilishi nima?**

Neytral yog' almashinuvining buzilishi – teri osi yog' to'qimasi, ichak-tutqich, charvi, epikard, ilik va boshqalarda yog' miqdorini kamayib qolishi yoki ortib ketishi, yoki ular bo'lmaydigan joyda paydo bo'lib, ko'payishi (masalan me'da osi bezida, miokardda) bilan ifodalanadi.

### **3. Genetik (irsiy) amiloidozga ta'rif bering?**

Genetik (irsiy) amiloidoz mavsumiy, davriy kasalliklar, oilaviy o'rta dengiz isitmasi, eshak emi toshishi va karlik bilan davom etadigan oilaviy amiloidoz (nefropatik), neyropatik va kardiopatik shakllari farqlanadi.

### **4. Semirish sabablarini ayting?**

1. liposat sistemalari (gipotalamus - adipositlar) funksiyalarini buzilishi (neuropeptid Y-leptin);

2. ovqatni kaloriyasini ko'pligi, organizmni energiya sarflanishi pasayishi, katabolik reaksiyalar intensivligini pasayishi.

### *Test savollari*

#### **1. Amiloidoz rivojlanishidagi zamonaviy teoriyalarni ko'rsating:**

**a. lokal xujayra sintezi**

b. virusli

c. allergik

d. psixoemotsional

#### **2. Amiloidning biokimyoviy tabiati qanday?**

a. xayvon kraxmali

**b. oksilpolisaxarid kompleksi**

c. mukoproteid

d. xromoproteid

#### **3. Qaysi kasallik amiloidoz rivojlanishi bilan asoratlanadi?**

a. o'tkir zaxarlanish

b. ateroskleroz

c. gipertoniya kasalligi

**d. o'pkani surunkali absessi**

#### **4. Amilodogenezni nazariyalari:**

**a. lokal xujayralar sintezi, mutatsion**

b. fizik – ximik, toksik

c. virus, o'sma

d. polietiologik infeksiyon

**5. Amiloidozda a'zolarni makroskopik xarakteristikasini toping?**

a. zichlashgan, kichraygan

b. ilvillagan, kattalashgan

c. kichraygan, ko'kimtir

**d. kattalashgan, zichlashgan**

**6. Amiloidozning rivojlanishi sabablariga kura tasnifini ko'rsating**

**a. idiopatik**

b. birlamchi (irsiy) ortirilgan

c. periretikulyar

d. erta, kechki

**7. Elektron mikroskopik ko'rilganda amiloid strukturasini kursating?**

a. granulyar

b. gomogen

**c. fibrillyar**

d. yacheykasimon

**8. Amiloidozda taloq qanday nomlanadi?**

a. glazurli

**b. sagosimon**

c. aspidli

d. porfirinli

**9. Fibrillyar strukturaga nisbatan amiloidoz turini ko'rsating:**

- a. birlamchi amiloidoz
- b. o'sma ko'rinishli amiloidoz
- c. perikollagenli, periretikulyar amiloidoz**
- d. ikkilamchi amiloidoz

**10. Sagosimon talokda amiloidozni joylanishini ko'rsating:**

- a. tomirlar intimasida, oq va qizil pulpada**
- b. faqat kizil pulpada
- c. faqat ok pulpada
- d. tomirlar adventisijasida

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	B	D	A	D	A	C	B	C	A